

**Sharqiy Osiyo birlashmasi (East Asian Community (ASEAN+3)) doirasida
Xitoy va ASEAN mamlakatlarning savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqlarning
rivojlanish xususiyatlari va istiqbollari**

**Aliyeva Feruza
ToshDSHI, Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy iqtisodiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti**

ANNOTASIYA

Maqola Xitoy va ASEAN mamlakatlarning savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqlarning rivojlanish xususiyatlari va istiqbollariga qaratilgan. Maqolada ASEAN mamlakatlari iqtisodi, hamkorlik natijalari yoritib berilgan.

So'nggi yillar davomida turli davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarning rivojlanish darajasining yuqori ko'rsatkichlari mintaqaviy integratsion jarayonlardagi faol ishtiroki bilan izohlanadi. XX asrdan Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyoda ham mintaqaviy integratsion jarayonlar kuchayib bormoqda. Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) qariyb 45 yil davomida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan aynan bugungi kunda mintaqaviy integratsion guruh sifatida shakllangan Sharqiy Osiyo birlashmasi doirasida ASEAN bilan Xitoy va Yaponiya, Janubiy Koreya mamlakatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. O'zaro hamkorlikning rivojlanish xususiyatlari ushbu davlatlarning ko'pchiligining iqtisodiyoti yuqori ko'rsatkichlar bilan o'sishi, rivojlanishning bir biriga mosligi, yaxshi yo'lga qo'yilganligi va uzoq tarix an'alariga ega bo'lgan o'zaro savdo aloqalari, shuningdek tartibga solinib borilayotgan hamkorlik shakli bilan bo'g'liq holda tarkib topadi.

ASEANga a'zo o'nta mamlakat hamda Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi "10+3" loyihasi doirasida o'z hamkorliklarini keng yo'lga qo'ymoqdalar. Sharqiy Osiyo birlashmasi kosepsiyasi 1990 yildan boshlab ilgari surilib, so'nggi yillarda hamkorlik aloqalari yanada rivojlanmoqda. Bu hamkorlik birlashmasi o'z ichiga 18 ta sohani qamrab oladi, siyosiy va xavfsizlik; xalqaro jinoyatchilik; savdo va investitsiya; moliya; turizm; qishloq xo'jaligi; baliqchilik va o'rmon xo'jaligi; kichik va o'rta biznes; axborot kommunikatsiya texnologiyalari; energiya; atrof-muhit; fan va texnika; sog'liqni saqlash; va kambag'illikka qarshi kurashish sohalarini qamrab oladi.

2007-yil Singapurda ASEAN+3 hamkorligining 11-sammitida Sharqiy Osiyo hamkorligi va ASEAN+3 hamkorligining Ish rejasi (2007-2017) qabul qilingan. Unda ASEAN plus uch hamkorligi yo'nalishlarining istiqboli uchun strategik boshqaruv asoslari muhokama etildi va 2009 yil 3 iyul Seulda 13-sammitda tasdiqlandi. Sharqiy Osiyo birlashmasi tarkibida 8,4 trln AQSh dollari miqdorida YaIM yarata olgan dunyoning yarim aholisi ya'ni 3,5 mlrdan ziyod kishi istiqomat qiladi. ASEAN+3 formulasining yadrosi hisoblangan Yaponiya, Janubiy Koreya

va Xitoy bilan ASEAN mamlakatlarining 54 % savdo aylanmasi shu mamlakatlar xissasiga to'g'ri keladi.¹ Osiyoda bo'layotgan integratsion jarayonlarda ASEAN+3 hamkorlik guruhi muhim ahamiyat kasb etdi. Siyosiy xavfsizlik sohasidagi hamkorlik jihatlari va nizolarni hal qilish yo'llarini ishlab chiqilgan.

1997 yil osiyo moliyaviy inqirozi ta'siri doirasida 1998 yil dekabr ASEAN+3 sammitida "Sharqiy Osiyo Vision (Kuzatish) guruhi" tashkil etish taklif etildi. Bu guruh tomonidan XXI asrda Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan uzoq yillik hamkorlik asoslari ko'rib chiqish muhim ustivor vazifa etib belgilanib olindi. Ushbu vazifalar o'z ichiga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalarni faollashtirish va kengaytirish kabi masalalarni qamrab olgan. Uning xulosalari 2001 yildagi sammitdagi dokladda e'lon qilingan va unda 3 ta asosiy xususiyat belgilab olingan:

- boshqa mintaqalar (Yevropa Ittifoqi va Janubiy Amerika) kabi mintaqaviy (institutsional) o'xshashlikni tashkil etish;
- Sharqiy Osiyo mamlakatlarning mintaqaviy va global muommolarni hal etishda ta'sirini oshirish asosida jahon xo'jaligi rivojlanishidagi rolini belgilash;
- milliy iqtisodiyotni hisobga olgan holda hamkorlikni rivojlantirish.

Oradan 10 yil o'tgan so'ng 2011 yilda "Sharqiy Osiyo Vision guruhi II" tashkil etilgan. Bu guruh o'z navbatida murakkabroq muommolar hal etish va ortda qolgan yillar sarhisobi asosida istiqboldagi rejalarni tuzish kabi vazifalar belgilab olgan. 2012 yil noyabrda navbatdagi sammitida ASEAN+3 hamkorligining kengaytirish hamda chuqurlashtirish va uni uzoq yillarga yo'naltirish asosi sifatida transport aloqani yangi sifat darajasiga ko'tarish masalalari ko'rilgan.

ASEAN+3 guruhi doirasida Ministerial Meeting on Transnational Crime (AMMTC+3) Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashish vazirlar majlisi va Senior Officials Meeting on Transnational Crime (SOMTC+3) Mansabdor shaxslar Xalqaro jinoyatchilik qurultoyi xavfsizlikning noan'anviy muommolari hamkorliklari tashkil etilgan.

Hamkorlikning ijtimoiy jihatlari Ijtimoiy taraqqiyot va inson resurslarini rivojlantirish, kambag'allikni, kasalliklarni va savodsizlikni yo'qotish, daromadi kam odamlar guruhlari uchun, ayniqsa qishloq joylarida, ish joylari yaratish, giyohvandlikka qarshi kurashish maqsadlarida fan va texnologiyalar sohasidagi, atrof muhit, madaniyat va axborot, ijtimoiy rivojlanish, ta'lim va boshqarish sohalarida hamkorlik.

Hamkorlikning iqtisodiy jihatlari Integratsiya va erkinlashtirish, bojxona tarif preferensiyalarini ta'minlashni o'z ichiga olgan holda ichki hududiy savdo faoliyatini kengaytirish; standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish. Asos – ESH, ASEAN (AIA) investitsiyalar hududi va sanoat hamkorligi Sxemasi (AIKO)


ASEAN+3-mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi doimo yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Xususan 2009 yilda tashqi Tovar aylanmasi 300

¹ Васильев Л.Е. «АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и перспективы. М.: ИД «ФОРУМ», 2010. 368 с

mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 712 mlrd AQSh dollariga yetgan. Bu mamlakatlar o'rtasidagi import hajmi 2009 yilda 254,7 mlrd AQSh dollarini, 2012 yilda 11 % ga o'sib, 389 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa eksport 1,4 % foizga qisqargan. 2012 yilda bu uch mamlakat savdo hajmi ASEAN savdo hajmining umumiy ulushi 28,8 % ni tashkil etgan. Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy tomonidan ASEAN mamlakatlariga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi ham ortib bordi va bu mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. 2007 yilda 12,7 mlrd AQSh dollarini, 2008 yilda 10,3 mlrd AQSh dollarini, 2010-yilda bu ko'rsatkich 39,8 mlrd AQSh dollarini, 2011 yilda 43,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2012 yilda kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 46,7 mlrd AQSh dollarga yetdi. Bu investitsiyalar hajmi ASEAN mamlakatlari umumiy investitsiyalar oqimining 43,6 % ni tashkil etgan. 2013-yilda kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 49,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bundan 60%i Xitoy ulushiga to'g'ri keladi. Xitoy deyarli barcha sohalarida hamkorlikning ustunlik jihatlarini namoyon etmoqda.

ASEAN+3 loyihasi qatnashchilari o'rtasida maxsus zaxira fondlari tuzilgan. Bu fondning umumiy qiymati 120 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, unda Xitoyning ulushi 38,4 mlrd mlrd AQSh dollarga yetgan.² 2010-yilda "ASEAN+3" mamlakatlari o'rtasidagi eksport hajmi 265,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, import ham 20 %ga oshgani holda 289,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Savdo hajmi joriy yilning o'zida 502, 2 mlrd AQSh dollarini tashkil egan.³

Yaponiya, Koreya Respublikasi va Xitoy tomonidan ASEAN mamlakatlariga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hajmi (mlrd AQSh dollari hajmida)



Manba: <http://www.chinapro.ru/rubrics/1/11020/ma'lumotlari> asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan


1990-yildan boshlab Xitoy o'z oldiga ASEAN mamlakatlari bilan ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilib oldi. ASEAN+3 yoki Sharqiy Osiyo birlashmasi doirasida yanada kengroq tashabbus ko'rsatmoqda. ASEAN ham aynan mintaqaviy tashkilot sifatida Xitoy bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish asosida ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Bugungi kunda hamkorlik darajasi muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Ikki taraflama muvaffaqiyatli hamkorlikni intashkil etilishi natijasida birgina 1991-2011 yillar davomida o'zaro tovar aylanmasi 37 marta ortib 7,96 mlrddan 350mlrd AQSh

² Xitoy Xalq Banki (Markaziy Banki) ma'lumotlari

³ P. Sergun ASEAN+3: Key Positions of Cooperation and Prospects of Development, 2012 y

dollariga yetdi ⁴ va shu yili Xitoy ASEANning uchinchi marta 1-darajali savdo hamkori bo'lib qoldi. ASEAN esa Xitoy savdo hamkorlari orasida 3-o'rinni egalladi. 2012-yilda esa 6,2 foizga ko'tarilib, 386 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. 2013-yilda 443,6 mlrd AQSh dollarida yetgan bo'lsa 2014-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilga nisbatan 1,2 foizga o'sib, 183 mlrd AQSh dollari gacha ko'tarildi.⁵

**Xitoy va ASEAN mamlakatlari o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi
(mlrd AQSH dollari)**



Manba: muallif tomonidan <http://europe.chinadaily.com.cn/world/2013-01/2> va <http://www.chinapro.ru/rubrics/1/11020/> ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan

ASEAN mamlakatlari Xitoy savdo hamkorlari bo'yicha yetakchi o'rinlarda turadi. Imtiyozli savdo siyosatining olib borilishi, past darajadagi boj to'lovlari hamda hududiy yaqinlik omillari tufayli 2015 yilga borib ASEAN mamlakatlari Xitoy savdo hamkorlari orasida 1-o'rinni egallaydi va umumiy savdo hajmi 500 mlrd AQSH dollarga yetadi.⁶ Mutaxassislarning ta'kidlashicha iqtisodiy-savdo aloqalarning bunday tez sur'atlarda o'sib borishi uning zahirida shakllanayotgan keng imkoniyatlar, erkin savdi hududi orqali eksport va import aloqalarning boj to'lovlarisiz harakati natijasida Xitoy va ASEAN mamlakatlari o'rtasida umumiy savdo aylanmasi 2020-yilga borib 1trln AQSH dollariga yetadi.⁷

Xitoy va ASEAN hamkorlik aloqalari hozirda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Buning asosiy omili sifatida biz hududiy yaqinlikni ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda global darajada raqobatbardosh bo'lgan yagona yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy mintaqani yaratish maqsadida integratsiya tamoyillari keng yo'lga qo'yilmoqda. ASEAN+3 ayni vaqtda yetarli darajada kuchli xalqaro birlashma sifatida tan olinmoqda. Bu o'z navbatida mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishida, yetakchi bo'lgan iqtisodiyotning turli sohalarini modernizatsiyalashning turli yo'nalishlarida o'z ifodasini topmoqda. Dunyodagi ko'plab davlatlar xalqaro integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish orqali o'zlarining barqaror taraqqiyotini ta'minlashga intilmoqda.

⁴Мишина С. И. “Стратегия кнр в интеграционных процессах в АТР” автореферат Москва 2012

⁵ <http://allchinacargo.ru/news/sotrudnistestvo-s-asean/> Материал создан с использованием данных сайта chinapro.ru

⁶ P. Sergun ASEAN+3: Key Positions of Cooperation and Prospects of Development, 2012 y

⁷ http://www.ved.gov.ru/rus_export/partners_search/torg_exp/?action=showproduct&id=4685

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дынкин А.А., Н.П. Шмелев «Мировая экономика и международные экономические отношения»: учебник. – М.: Магистр: ИНФРА-М, 2013. 654 с
2. Мишина С.И. «Стратегия КНР в интеграционных процессах в АТР» , автореферат, Москва-2012
3. Васильев Л.Е. «АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и перспективы. М.: ИД «ФОРУМ», 2010. 368 с
4. Li Xiangyang The Regional Integration in East Asia: A Chinese Perspective
5. <http://www.eastasiaforum.org/2012/05/23/aseans-macroeconomic-research->
6. http://polpred.com/?ns=1&ns_id=1102783<http://>